



IPAKCHILIKNI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI.

Marg'ilon 1-son politexnikumi

Dilbar MovlanovaUmardjonovna

Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Marg'ilon 1-son politexnikumi

Jarayeva Muxtasar Saidumarovna

Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Marg'ilon 1-son politexnikumi

Nilufar Yaxyonova Avazjon qizi

Maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola o'quv amaliyoti kasb- hunar maktabining o'quvchilariga mo'ljallangan. uslubiy ishlanmasi TTS-tarmoq ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. kadrlar tayyorlash barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirish o'quv amaliyotiga oid bilimlarining salmog'iga bog'liq. Shu sababli o'quvchilarning ushbu amaliyotdan egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Bo'lajak ishlab-chiqarish ta'limi ustalari uchun o'quv amaliyoti mavzusi bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnik shartlar texnologik talablar va yo'l -yo'riqli xarita yoritilgan.

bugungi kun talablari uchun bo'yicha zaruriy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.



Pillachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, to'qimachilik sanoatini hom-ashyo bilan ta'minlaydi. Respublikamiz halq xo'jaligi rivojlangan va aholining turmush darajasi yaxshilangan sari uni tabiiy ipakdan to'qilgan turli kiyimlarga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Tabiiy ipakdan qimmatli, pishiq gazlamalar to'qilib, undan aviatsiya, kosmonavtika sanoatida, tabobatda, radiotexnika va boshqa sohalarda keng foydalaniladi.

Ipak qurtidan olinadigan tola turli tarmoqlarida foydalaniladi. Ipak pishiqligi, cho'ziluvchanligi, issiqqa chidamliligi, chirimasligi, ko'rkamligi, yengilligi, nafis va havo o'tkazuvchanligi, mayinligi va gigiena qoidalariga mosligi (ozodaligi) jihatidan ko'pgina gazlamalardan ustun turadi. Ipak tolasidan har xil shoyilar atlaslar, ipak gazlamalar to'qiladi. SHoyi gigiena qoidalariga mos bo'ladi, g'ijimlanmaydi, o'ziga xos ravishda yaltirab chiroyli jilo berib turadi. Tabiiy ipak tolalari bilan sintetik tolalar qo'shilib to'qilgan gazlamalarning tannarxi sof ipak tolasidan to'qilgan gazlamalarga nisbatan 20-25% arzonga tushadi. Ipakdan to'qilgan gazlamalar ko'p yillar davomida rangini o'zgartirmasligi va nafisligi uchun xaridorgir bo'ladi. Pillaning g'umbagi esa mo'ynali xayvonlar uchun juda to'yimli oziq hisoblanadi, Bir kilogramm g'umbak mo'ynali hayvonlar va parrandalar uchun 2,5 kilogramm go'sht o'rnini bosishi mumkin. Ipak qurtini boqish davrida ular ajratgan eksperimentlar (bir quti qurt 285-290 kilogramm tezak ajratadi) yerni tabiiy - mineral o'g'itlar bilan boyitish uchun keng qo'llaniladi.



Ipakchilikni xalq xo'jaligidagi ahamiyati.


Respublikada ipakchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari: Respublikamizda pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 yanvar PQ-4567- sonli, farmonlari chiqarilib, ozuqa ba'zasini mustaxkamlash uchun yangi tutzorlar barpo etish va tutning yangi, sermaxsul navlarini yaratish, qurt boqishning yangi texnologiyasini qo'llash, tayyorlanayotgan pilla salmog'ini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, ipak qurtining yangi zot va duragaylarini ishlab chiqarishga tadbir etish vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Pillachilik tarmog'ining eng dolzarb muammosi yuqori navli raqobatbardosh pilla hamda ipak tolasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdir. Sohadagi ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 3-yanvardagi 01-03-26- 1 sonli qarorida fermer xo'jaliklarida 3 gektar va undan ortiq tutzorlar tashkil etib, ularning yonida 15 qutiga mo'ljallangan qurtxonalar qurish to'g'risida, hamda 2012 yil 12 noyabrdagi "O'zpaxtasanoat" uyushmasi tizimidagi paxta punktlarida pilla



yetishtirish va aholiga xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlarga asosan

“Uzpaxtasanoat” uyushmasi tizimidagi paxta zavodlari va ularning 196 ta paxta qabul qilish maskanlarida 50-70 qutidan ipak qurti boqib pilla yetishtirish yo'lga qo'yish va qurtxonalar yonida intensiv texnologiyali tutzorlar tashkil qilish uchun 5 gektardan yer maydoni ajratish bo'yicha tegishli idoralarga topshiriqlar beriladi. Hozirgi kunda yuqoridagi topshiriqlar asosida 196 ta paxta qabul qilish maskanlari ichida yoki yonida 72 x 12 sxemada 70 quti ipak qurti boqish uchun qurtxonalar qurilib, tutzorlar tashkil qilish uchun Xitoydan tut ko'chatlari keltirilib ekildi.



Ipakchilik tarixi



Hozirgi zamon ipakchiligining vatani janubi-sharqiy Osiyodir. Xitoyda eramizdan qariyb 3000 yil ilgariroq tabiiy ipak tayyorlash bilan shug'ullanilgan.

Pillachilikning vatani Xitoy davlati hisoblanadi. Eramizdan III ming yil oldin Xitoy davlatining SHan-tung (Hozirgi kunda SHangdun deb ataladi) provintsiyasida (viloyatida) ipak qurtlari boqilgan. SHan-tung viloyati Xitoyning chetki provintsiyalaridan biri bo'lib, sariq dengizi va CHjili ko'rfazining

o'rtasidagi yarim orolda joylashgan. Undagi ob-havo ya'ni harorat va havo namligi ipak qurtining yaxshi rivojlanishi uchun qulay bo'lganligi va oziqa beruvchi daraxtzorlarning ko'pligi shu joyda ipak qurtlarining rivojlanishiga qulay bo'lganligidadir. Pilla va ipak so'zlari ham Xitoy xalqi tomonidan birinchi marotaba nom berib atalgan. Yevropaliklar Xitoy davlati bilan savdo-sotiq qilib,

Xitoyliklarni serklar deb vatanini esa serk davlati deb atashgan. nom berishgan. SHundan kelib chiqib ipakning lotncha nomi ham serik deb ataladi.

Umuman tarixda Xitoyliklarni yer yuzidagi birinchi xalq deb ham atashadi. CHunki, bu davlat juda qadimdan rivojlangan va tarixiy ma'lumotlarga boy bo'lgan davlatdir.¹

O'rta Osiyoga ipakchilik IV asrda kirib kelgan. Ammo keyingi yillardagi tekshirishlarga qaraganda Movarounnahrda ipakchilik juda qadimdan (eramizdan oldin) mavjudligi tasdiqlanmoqda. Ipak qurtining bir necha turlaridan ipak olinadi. Bu turlardan honakilashtirilgani tut ipak qurti faqat tut bargi bilan oziqlanadi va uzunligi 1000-1500 m dan ortiq ingichka toladan iborat pilla uchraydi. Yuqori sifatli va rang-barang shoyi matolar dunyoda, ayniqsa SHarqda qadim zamonlardan mashhurdir. SHoyi Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yevropa mamlakatlariga ham olib borilgan. Natijada keyinchalik «Buyuk ipak yo'li» deb atalgan savdo va madaniy aloqalar yo'li madaniyatni birlashtiruvchi yo'l vujudga kelgan.



Buyuk Amir Temur hokimlik qilgan davrda davlatning butun hududida, ayniqsa Markaziy Osiyoda «Buyuk ipak yo'li» bo'ylab joylashgan Samarqand, SHahrisabz, Buxoro, Turkiston shaharlari va Farg'ona vodiysida pillakashlik, ipakchilik va shoyi matolar to'qish san'atining rivojlanib, kiyim-bosh uchun ipakka zar va kumush iplar aralashtirib to'qilgan shoyi gazlamalar paydo bo'lgan. Bunday kiyimlar «Buyuk ipak



yo'li» orqali Yevropa mamlakatlariga tarqalgan.

Ipak gazlamalarini ishlab chiqarish uchun turli xomashyo qo'llaniladi. Bularning jumlasiga tabiiy ipak iplari, sun'iy va sintetik birikkan iplar, sun'iy va sintetik tolalardan olingan iplar kiradi.

Barcha ipak gazlamalarning umumiy hajmiga nisbatan tabiiy ipakiplaridan olinuvchi gazlamalarning miqdori faqat 2-3 foizga yetadi. Biroq bu gazlamaning nafisligi, mayinligi, tashqi ko'rinishi-ning chiroyliligi, yuqori gigiyenik xossalari boshqa tolali ipak gazlamalari yuqoridir.

Tabiiy ipak gazlamalarning xususiyatlari ko'p vaqt davomida uncha o'zgarmaydi ham. Bu guruh gazlamalarning katta qismini krepdeshin, krep-jorjet, krep-shifon nomli gazlamalar tashkil qiladi. Bu gazlamalarni ishlab chiqarishda yuqori eshilishga ega bo'lgan (krep) iplaridan foydalaniladi. O'z navbatida bu iplar chiziqli zichligi 1,56; 2,33 va 3,23 teks bo'lgan xom ipak iplarini pishitib olinadi. Gazlamalarning o'rilishi polotno



bo'lsa ham, tarkibida krep iplari ishlatilgani tufayli, ularning sirtida mayda donli naqsh hosil bo'ladi. Krep gazlamalari oson cho'ziladi, qiyshayib ketadi, iplari to'kiladi. Shu sababli, ularni to'quvchilikda ishlatish ancha qiyin. Pardozlanish turlari — sidirg'a rangli, oqartirilgan va gul bosilgan bo'ladi. Krepdeshin — tandasida xom ipak, arqog'ida esa pishitilgan krep ipak iplaridan olinuvchi gazlama. Arqoq yo'nalishida ham o'ng, ham chap eshilgan iplar galma-gal kelganidan gazlama sirti o'ziga xos tovlanib turadi. Yuza zichligi 55 - 75 g/m², eni 90 va 95 sm bo'ladi. Krep-shifon — yupqa, yengil, tiniq gazlama. Bu gazlamaning ikkala yo'nalishida krep iplari ishlatiladi. Eni 90, 95 va 105 sm, yuza zichligi 25 - 35 g/m². Krep-jorjet - krep-shifondan biroz qalin va og'ir. Yuza zichligi 35 - 65 g/m². Bu gazlamalar, asosan, ayollarning chiroyli ko'ylaklari va murakkab bichimli bluzkalarini tayyorlashda ishlatiladi.

Tabiiy ipakdan sirti silliq bo'lgan gazlamalar ham olinadi. Bularga chiziqli zichligi 5 teks x 2 - 10 teks x 2 bo'lgan pishitilgan iplardan polotno o'rilishida to'qilgan polotno gazlamalari va atlas o'rilishida to'qilgan milliy gazlamamiz xonatlas kiradi. Polotno xom (sarg'ish), oqartirilgan va kam miqdorda gul bosilgan holda pardozlanadi. Xonatlaslar esa avr usulida turli ranglarga bo'yalgan iplardan to'qiladi.

Tabiiy ipak iplaridan yana yirik gulli bezak gazlamalari va tukli gazlamalar olinadi. Tukli gazlamalarga baxmal kiradi. U ipak tolasidan yigirib olingan iplardan tandatukli o'rilishda ishlab chiqariladi. Tuklar balandligi 1-1,5 mm, gazlamaning yuza zichligi 190 g/m², eni 70, 90, 135 sm bo'ladi. Baxmal tikuvchilikda eng qiynaydigan gazlama, u aniq bichishni va ehtiyot bo'lib tikishni talab qiladi. Buyumning barcha qismlarida tuk yo'nalishi bir xilda bo'lishi kerak.

Tabiiy ipak iplariga boshqa iplarni qo'shib to'qilgan gazlamalarning soni uncha ko'p emas. Bu guruh jumlasiga krepdeshin ko'rinishda to'qilgan ko'ylaklik gazlamalarni kiritish mumkin. Bu gazlama arqog'ida tabiiy ipakli krep iplari, tandasida esa kapron yoki atsetat kompleks iplari ishlatiladi.



Sun'iy iplarga boshqa tolalar qo'shib to'qilgan gazlamalar guruhidagi gazlamalarni ishlab chiqarishda odatda tandasida viskoza yoki atsetat iplari, arqog'ida esa paxta yoki sintetik shtapel tolalaridan olingan iplar ishlatiladi. Bu guruhning katta qismini sirlari silliq gazlamalar tashkil etadi. Ko'ylaklar uchun mo'ljallangan bu guruhdagi gazlamalarning tandasida 11,1 teks li atsetat iplari, arqog'ida esa hajmdor atsetat ipi; shakldor atsetat ipiga yupqa kapron ipini pishitib qo'shilgan ipi; halqasimon atsetat ipi va hokazolar ishlatiladi. Bunday gazlamalarning yuza zichligi 80-120 g/m². Bu guruh gazlamalari jumlasiga tandasi viskoza ipidan, arqog'i paxta tolali ipdan to'qilgan astarlik sarja gazlamalar ham kiradi. Yirik gulli o'rilishdagi gazlamalar tandasida viskoza yoki atsetat iplaridan, arqog'ida kompleks sintetikiplar, hajmdor yoki shakldor iplardan to'qiladi. Zar-simon iplar ham qo'shilishi mumkin. Sirti tukli gazlamalarga asosi paxta tolali iplardan, tuki viskoza yoki atsetat iplaridan to'qilgan baxmallar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo. Ya. Mirzayeva "Tut ipak qurti biyologiyasi", Toshkent. 2017 Darslik.
2. SH.R.Umarov, CH.I.Bekkamov, Yo. Ya. Mirzayeva, N.E.Rahmonova "Tut ipak qurti biyologiyasi", Toshkent 2019. O'quv qo'llanma.
3. N.Ahmedov "Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi". Toshkent, "Cho'lpon" nashriyoti. 2015 yil.
4. Ahmedov N, Navro'zov S. "Ipak qurti urug'chiligi". Toshkent "Voriz" nashriyoti 2015 yil.

Internet saytlari.

cncycl.accoona.ru www.mavicanet.com/ www.ab.az/ru www.sheki-ipek.com.az

ww.edu.diplomax.ru/